



ISAJON SULTONNING “ONAIZORIM” QISSASIDA XALQ OG‘ZAKI IJODI MOTIVLARI.

Zilola Anorboyeva Ibrohimjon qizi

Namangan davlat universiteti filologiya fakulteti,
adabiyotshunoslik(o‘zbek adabiyoti) yo‘nalishi 2-bosqich magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7981434>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 23-May 2023 yil
Ma’qullandi: 26-May 2023 yil
Nashr qilindi: 29-May 2023 yil

KEY WORDS

*istiqlol davri, qissa, badiiy
adabiyot, xalq og‘zaki ijodi,
folklor, alla, yor-yor, marsiya,
bolalar qo‘shiqlari*

ABSTRACT

Ushbu maqolada istiqlol davri adabiyoti vakili Isajon Sultonning “ Onaizorim” qissasida qo‘llanilgan xalq og‘zaki ijodi namunalari va ularning asar yaratishdagi o‘rni yoritib berilgan.

Badiiy adabiyotda milliy xarakterlar va milliy urf-odatlar aks etgan qissalar juda ko‘p o‘rin egallaydi. So‘nggi davr o‘zbek nasrida asar yaratishda xalq og‘zaki ijodi motivlariga murojaat qilish kuchaydi. Ular asar syujeti, mohiyatiga singib ketib, ijodkor fikr yuritishida asosiy vositaga aylanib boryapti. Xalq og‘zaki ijodi namunalari qo‘llash asarda badiiy tasvirning mukammalligini, uning ta’sir kuchi oshirishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Folklor asarlari o‘zining hayotiyliigi, ijtimoiy tabiati, g‘oyaviy mohiyati hamda o‘ziga xos badiiy xususiyatlari bilan adabiyotimizda o‘ziga xos o‘ringa ega. Xalq mehnati, urf-odati, turmush sharoiti, orzu-istagi, kurash va g‘alabalari uning mavzusi va mazmunida aks etadi.

Yozuvchi va adabiyotshunos Isajon Sulton ijodida ham ota-bobolarimizdan meros bo‘lib kelayotgan, necha zamonlar chig‘irig‘idan o‘tgan, ko‘pchilikning xotirasidan ko‘tarilayotgan ko‘plab betakror og‘zaki ijod namunalari ko‘rishimiz mumkin.

Adibning “Hazrati Xizr izidan” qissasi syujeti ham Xizr alayhissalom haqidagi rivoyatlar asosiga qurilgan.

“Onaizorim” qissasida ham xalq og‘zaki ijodi namunalari qo‘llangan bo‘lib, ular asarning badiiyligini oshirishga, estetik ta’sirini kuchaytirishga yordam bergan. Asarni o‘qir ekanmiz, qahramonlar bilan yashayotganday, ularning orzu-armonlari, dard-u tashvishlariga sherik bo‘lamiz.

Asar muqaddima, 5 qism va xotimadan boshlangan. Muqaddima bahor fasli tasviri bilan boshlangan. Qissada folklor namunalari juda ko‘p o‘rinlarda duch kelamiz.

Bola tug‘ilgan zahoti dunyodagi eng mehr bilan aytiladigan qo‘shiqni eshitadi, katta bo‘lgani sari turli o‘yinlar o‘ynaydi, o‘g‘il bolalar sunnat qilinadi, bo‘y yetganda qizlar turmushga uzatiladi, yigitlarga kelin olinadi va farzand dunyoga keladi, qarabsizki yana o‘sha hodisalar birin ketin takrorlanaveradi. Inson tug‘ilganidan to vafot etguniga qadar, umri davomida ana shunday hodisalarni boshidan o‘tkazadi.

Qadimdan momo-buvilarimizdan meros bo'lib kelayotgan folklor namunalaridan biri bu- alladir. Alla deyarli hamma xalqlar og'zaki ijodida bor.

“Onaizor” qissasida ham folklorning bu turiga duch kelamiz”

Tilimning uzuni-yo, alla,

Yuzimning qizili-yo, alla

Yuragimning taftiga-yo

Tandirlar qiziydi-yo, alla

Otasining davlati yo'q, alla-yo alla

Onasining rohati yo'q, alla-yo alla.¹

Har bir xalqning allasida qanday mazmun ifoda etilishidan qat'i nazar, unda farzand ko'rgan ayolning bolasiga bo'lgan muhabbati ustuvorlik qiladi. Asarda o'zbek xotin-qizlarining timsoli o'ta tabiiy yaratilgan. Jumladan, muallif Ra'no ismli qizchani shunday tasvirlaydi:” ko'zlari chaqnab- chaqnab turadigan, shiddati, g'ayrati ichiga sig'mas qizaloq. O'zidan katta chelaklarni ko'tarib, daranglatib yurib qoladi. Yugurib tinmaydi, guldor ko'ylaklarni yaxshi ko'radi, ammo o'yinga berilganidan kir qilib qo'yadi, “kir bo'pti-ku” deyishsa, “voy o'lay” deb egilib etagini ko'tarib qaraydi².

Inson hamisha har bir hodisa, har bir narsadan o'ziga manfaatli jihatlarini qidirishga intilgan. Xayolida bu manfaatlarni izohlashga sabablar qidiradi. Turmush tajribasi ushbu hodisalarni turlarga bo'lish, ulardan foydali va zararlilarini ajratishga imkon yaratadi. Natijada xalq tasavvurida unday bo'lsa yaxshi, bunday bo'lsa yomon kabi tushunchalar paydo bo'lib boradi. Qissada ham turli o'rinlarda shunday tushunchalarga, ta'bir joiz bo'lsa irimlarga duch kelamiz. “Qozon qirmochini yesang, to'yingda shamol esib, yomg'ir yog'adi, boshqa yemagin, - dedi ona³. Bundan tashqari “dasturxonni teskari yozib bo'lmaydi”, “ nonni toq qo'yib bo'lmaydi” dasturxonda fotihadan oldin o'tkir narsa turmaydi, o'tkir narsa duoni kesadi” kabi tasavvurlar ham keltirib o'tilgan.

Qissada yana bolalar o'yinlari, yor-yor, to'y marosimlari, marsiyalar, qarg'ishlar, duolar ham o'ziga xos usulda tasvirlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.To'xliyev . Adabiyot (darslik) / akademik litseylarning birinchi bosqich o'quvchilari uchun
2. Isajon Sulton “Onaizorim” qissasi
3. O. Madayev, T. Sobitova Xalq og'zaki poetik ijodi/ akademik litseylar uchun/ sharq nashriyot:. T – 2010
4. Ziyonet.uz sayti

¹ Isajon Sulton. “Onaizorim” 5-bet

² O'sha asar 3-bet

³ Isajon Sulton. “Onaizorim” 9-bet